



OMONYOR AND NATIONAL MEMORY

Mukarramxon Saydullayeva

Uzbek State Institute of Arts and Culture Fergana Regional Branch

Annotation

This article describes the Omon Yor ensemble and six species of homonyms that belong to our national memory.

Keywords: ethnicity, folklore, ethnicity, ethnography, people, survival.

Introduction

Har bir millat, elat va etnik guruhning o'ziga xos udumlari, urf odatlari, an'ana va marosimlari bor. U avloddan avlodga, davrdan-davrga meros bo'lib o'tadigan muayyan ijtimoiy gurux tomonidan qabul qilingan xulq atvor usullaridandir. Milliy qadiryatlarning tiklaninishi ma'naviy yuksalishning muhim omillaridan biridir. Folklor etnografik jamoalari xalq ruhiyati, milliy o'ziga xosligi, mintalitetini aks ettiruvchi badiiy qadryatdir. Folklor etnografik jamoalari xalqimining e'tiqodi va umum insoniy qadiryatlarini namoyon etadi. Ular dasturida mujassam etilgan xalq ijodi namunalari folklorizmning sahnaviy ko'rinishi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Ayni paytda mavjud folklor etnografik jamoalari qalbning oynasi bo'lgan xalq ijodiyoti namunalarini, turfa hil marosim, an'analar, rasm rusum va udumlarimizni o'z dasturlarida namoyish etish orqali milliy qadryatlarimiz, qadimiy an'ana va marosimlarimizni tiklab, kelajak avlodga qoldirish uchun harakat qilmoqdalar. Xalq og'zaki ijodi namunalarini keng ommalashtirish, har bir xududga xos udumlar, qadimiy urf-odatlar, marosimlar hamda an'analarni tiklash maqsadida Respublikamizning barcha xududlarida folklor va etnografik ansambllar faol ish olib bormoqda. Ana shunday faoliyatlardan biri ulkan salohiyatga ega bo'lgan, folklor san'ati chamanzoridan o'rin olgan ansambllardan biri O'zbekiston xalq artisti Rahima Mazoxidova tomonidan tashlik etilgan "omonyor" ansamblidir.

Rahima Mazoxidova (1930) yilda Qo'qon shahrida tavallud topgan. Kasbiy faoliyati davomida xonandalik va Qo'qon teatrda aktrisa lavozimida ham ish faoliyat olib borgan. Qo'qon shahar teatridi "Zebo", "Tojiniso", "Mastura satang", "Rano", kabi bir qancha obrazlar yaratgan. Rahima Mazoxidova doira jo'rligida xalq lapar va yallalaridan ("Yor yor", "Kelin salom", "Dey-diyo", "Bug'macha bilagim", "omon yor", "Yalli yali", "Qari navo") kabi marosim qo'shiqlarini ijro etish bilan birga mumtoz asarlarga ham qo'l urgan ulardan ("Feruz", "Qo'qon ushshog'i", "Guluzorim",





“Mujgonlarim”, “Farg’ona tong otguncha”, “Bir kelib ketsun”) qo’shiqlarini ham mahorat bilan ijro etganlar.

1969-yilda O’zbek film studiyasida “O’tgan kunlar”, 1973-yilda “Zulmatni tark etib”, 1979-yilda “Ota vasiyati” nomli filmlarda suratga tushgan. Xalqimizning nazariga tushgan Ustoz san’atkor 1997-yil Mehnat shuxrati ordeni bilan taqdirlangan. Ustoz san’atkor tomonidan ijro etilgan qo’shiqlarning 350 dan ortiqrog’i O’zteleradio xazinasidan joy olgan. Bu benazir merosni o’rganish biz yoshlar uchun juda katta maktab desak mubolag’a bo’lmaydi. Rahima Mazoxidova kuylagan qo’shiqlarda mardlik, jasorat, xalollik, vatan madxini tariflocvhi, millat ma’naviy salohiyatini, ijrochilik san’atini oshirishga undovchi asarlar mavjud. Rahima Mazoxidova birinchi madaniyat uyi qoshida “omonyor” folklor ansambli tashkilotchisi va badiiy rahbari. “Omonyor” folklor jamoasi o’zlarining qiziqarli chiqishlari bilan turli ko’rik tanlovlarda sovrinli o’rinlarni qo’lga kiritgan. Rahima Mazoxidova ko’plab istedadli shogirtlarni yetishib chiqardi ulardan Maqsuda Toshmatova, Muborak Akramova, Salomat Ismoilova, Xursanoy Qodirova, To’raqul Tursunov va boshqa iste’dodli shogirtlarni ham yetishib chiqishiga sababchi bo’lgan. Ustoz san’atkor qo’lida doir bilan “Qo’qon yor-yori”ni yonib kuylagan.

Bog’imizning to’rida bir tup anjir yor-yor,

Anjirning taglarida tillo zanjir yor-yor.

Tillo zanjir iplari uzulmasin yor-yor,

Kelin kiyov taqdiri buzulmasin yor-yor.

Doira chertib yurak yurakdan kuylayotganda ovozini eshitishimiz bilan A.Qodiriyning “O’tgan kunlar” romani asosida yaratilgan to’y manzarasi beixtiyor ko’z oldimizga keladi. (Xoy ukam. Qo’qonlik ukam, omon yor. Yuzingdagi xolingdan, omon yor.) Radio orqali yangrayotgan ushbu qo’shiqni tinglagan muxlislar yuragida bir shirin xotirani eslatib yoshliklarini qumsashga undar edi.

Rahima Mazoxidova olti omon yor

1. Omon yor.

Silkinadi majnuntol, Shoxlarini egib ol.

Shunday erkin zamonda, Yaxshi ish ko’rsatib qol.

Rama aka yo’l bo’lsin, Do’ppingiz qutlug’ bo’lsin.

Suyib ekkan paxtangiz, Chakkangizga gul bo’lsin.

2. Omon yor.

Osmondagi uch o’rdak, Uchchalasi ham birdak.

Zamonamiz qizlari, Ochilgan qizil guldak.

Men ketay ko’cha bilan, Terakzor ichi bilan.





Yigit qo'li bog'lansin, Qizlarning sochi bilan.
Ariq borib soy bo'lar, Xafta o'ti boy bo'lar.
Hosilingiz mo'l bo'lsa, Kuzga borib to'y bo'lar.

3. Omon yor.

Omon yor o'ynasangchi omon yor,
Belingni bog'lasanchi omonyor.
Suygan yoring kelipti omon yor,
Ochilib o'ynasangchi omon yor.

4. Omon yor.

Sochim uchu qo'ng'iroq, omonyor, Yozilguncha o'ynayman omon yor.
O'n gulimdan bir gulim, omon yor, Ochilguncha o'ynay man omon yor.
Taxta taxta ko'prik, omon yor, Taqillatib o'taman omon yor.
Gerdaymang ko'p yigitga, omon yor. Laqillatib o'taman omon yor.
Chiroqqa soldim pilik, omon yor, Yorginam o'zi xunuk omon yor.
Xunuk-xunuk demangla, omon yor, Xunuk yorim mard yigit omon yor.

5. Omon yor

Qoshing asli qarodir, O'sma qo'yganing yolg'on,
Saning uchun man kuygan, Sani kuyganing yolg'on.
Ro'molimni yuvdirdim, Olib dorga yoydirdim.
Qaro dorlari qursin, Qaroqchiga topshirdim.
Ro'molim bor hilladan, omon yor, Gajimlari tillodan omon yor.
Ko'zga yaqin qiz bo'lib siz, omon yor, Tumor oling mullodan omon yor.
Qashqar baldoq taqaman, omon yor, Feruza ko'zi bo'lsa omon yor.
Sizga singil bo'laman, omon yor, Ko'nglingiz to'g'rib o'lsa omon yor.

6. Omon yor.

Qo'qon ko'chasi tor ekan, omon yor, Sayroqi qush darkor ekan, omon yor.
Ilm-u xunarga boy ekan, omon yor, Ketmang qo'qon xo'pjoy ekan, omon yor.
Shunda bordim chorus, tomon omon yor, Ko'ring qanday erkin zamon, omon yor.
O'g'il qizi shodi handon, omon yor, Ketmang Qo'qon xo'p joy ekan, omon yor.
Gar kelsangiz shaxri Qo'qon, omon yor, Ko'rib keting Rahimaxon, omon yor.
San'ati shuncha boy ekan, omon yor, Ketmang Qo'qon xo'p joy ekan, omon yor.
Qo'qonni obod aylagan, omon yor, Cho'lni guliston aylagan, omon yor.
Rahbarlari dono ekan, omon yor, Ketmang Qo'qon xo'p joy ekan, omon yor.





Ushbu Yor yorlar, doira sadosi, filmlardagi rollari bilan xalqning qalbidan joy olgan ustoz san'atkor Rahima Mazoxidova umr bo'yi ijro etgan xalq qo'shiqlari marosim va an'analari bilan folklor san'atiga tamal toshini qo'ydi. Bundan ko'rinib turibdiki xalq og'izaki ijodi, va folklor ansambllar yuksalib borishdan to'xtamaydi. Xususan "Omon yor" ansambili shular qatoridan o'rin olgan. Undagi qo'shiqlar, laparlar, og'izdan og'izga o'tib, Ustoz shogirt an'analariga bog'langan xolda insonlar qalbidan joy olib, ular xotirasida abadiy saqlanib qoladi. Men bu Folklor san'atini milly xotira deb tasavvur qilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.
2. Yunusov, G., Juraev, I., & Ahmedov, R. (2020). A LOOK AT THE REGIONAL SEASONAL FOLKLORE AND THEIR ORIGIN. THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLKLORE IN THE DEVELOPMENT OF DANCE ART. European Journal of Arts, (1), 121-124.
3. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. (2021). A look at samples of uzbek folklore. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 9-14.
4. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.
5. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.
6. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.
7. Talaboyev, A. (2021). Skill Improving Ways in Traditional Song Performing. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 12-17.
8. Талабоев, А. Н. (2019). Ўзбек миллий анъанавий ижрочилик санъатида маҳаллий услублар. Перекрёсток культуры, 1(4).
9. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.
10. Талабоев, А. (2019). Мақом санъатида сўзнинг ўрни. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 25-28.



11. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. (2020). SONG PERFORMING IN TRADITIONAL PERFORMING ARTS: PAST AND PRESENT TIM. *European Journal of Arts*, (1), 85-88.
12. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2916-2920.
13. Аҳмедов, Р. (2020). Миллий мусиқий ижрочилик санъатига бир назар. *Oriental Art and Culture*, (I (2)), 5-9.
14. Shermatova, X. (2021). A LOOK AT THE MUSIC EDUCATION IN SCHOOLS: FORMS AND METHODS OF MUSIC EDUCATION. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 253-258.
15. Shermatova, X. (2020). MUSIQA NAZARIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).
16. Шерматова, Х. К. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЁЖИ. *Проблемы современной науки и образования*, (12-1 (157)), 117-119.
17. ШЕРМАТОВА, Х. К. (2015). Народная музыка как средство музыкально-эстетического воспитания школьников. In *Юность и Знания-Гарантия Успеха-2015* (pp. 318-316).
18. Мад, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ АРТИСТИ ТАМАРА ХОНИМНИНГ СОБИҚ ИТТИФОҚ ДАВРИДА САНЪАТДАГИ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 160-170.
19. Мадолимов, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН САНЪАТКОРЛАРИНИНГ УЛУФ ВАТАН УРУШИДА ФРОНТ ВА ФРОНТ ОРТИДА ҒАЛАБАГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ (1941-1945 ЙИЛЛАР). *Oriental Art and Culture*, (7), 144-151.
20. Kurbonova, M. (2021). The importance of folklore in the upbringing of a harmoniously developed generation. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1750-1758.
21. Қурбонова, М. (2021). Аёллар санъати: кеча ва бугун. *Oriental art and culture*, 2(3), 62-75.
22. Qurbonova, M. (2020). СНЕТ ЕЛ МУСИҚАСИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. *Oriental Art and Culture*, (V).
23. Tursunov, B. (2021). Doira as a National Musical Instrument. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 50-54.
24. Турсунов, Б. (2020). ЧОЛҒУ ИЖРОЧИЛИГИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. *Oriental Art and Culture*, (V).





25. Исмаилова, М. М. (2020). ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЗБЕКСКОМ МУЗЫКЕ: ДУТОР. Проблемы современной науки и образования, (12-1 (157)), 113-115.
26. Ismoilova, M. (2020). CHOLG'U IJROCHILIGIDA NOTAGA QARAB IJRO QILISH. *Oriental Art and Culture*, (V).
27. Mamatov, J. (2020). BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA ERTAKLARNING AHAMIVATI. *Oriental Art and Culture*, (V).
28. Mamatov, J. (2021). Directing in the Training of Art Professionals. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 90-96.
29. Madaminov, S., Mamatov, J., & Siddikov, S. (2020). A look at the history of uzbek maqom art. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1144-1151.
30. Jurayev, I. (2021). A LOOK AT THE LIFE PATH OF FATTOKHON MAMADALIEV. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 54-59.
31. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. An International Multidisciplinary Research Journal. *An International Multidisciplinary Research Journal*.
32. Yunusov, G. X., Juraev, I., & Ahmedov, R. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.
33. Ahmedov, R. (2021). SAN'ATGA BAXSHIDA UMR. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 50-56.
34. Ahmedov, R. (2021). Murodjon Ahmedov-Fergana Valleys Singer. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 412-418.
35. Talaboyev, A. N. (2021). MAQOM SAN'ATI. MAQOM SAN'ATINI O'RGANISHDA VA UNI YOSH IJROCHILARGA O'RGATISHDA ETIBOR QARATILISHI LOZIM BO'LGAN JIHATLAR. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 149-155.
36. Talaboyev, A. N. (2021). Methods of Effective use of Teacher-Discipleship Traditions in Learning the Art of Makom. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 389-393.
37. Ismailova, M. (2021). SHOGIRDLARI QALBIDAN CHUQUR JOY OLGAN USTOZ YULDASHEV AHMADJON MIRZAEVICH. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 27-33.

